

Psixotrop hab dorilarni iste'mol qilishning oldini olish va korrupsiya qarshi kurashish



02.02.2023

Psixotrop hab dorilarni iste'mol qilishning oldini olish va korrupsiya qarshi kurashish

Bugun "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti ma'ruzalar zalida birinchi kurs talaba-yoshlar o'rtasida turli yot g'oyalardan himoyalash, yoshlar o'rtasida an'anaviy giyohvand moddalar hamda psixotrop tabletkalarni iste'mol qilishning oldini olish bo'yicha tadbir o'tkazildi. Unda Unversitet huquq targ'ibot maskani profilaktika katta inspektori Ubaydullaev Abzal Riqsiboevich hamda Unversitetimiz Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i Akbar Umirovich Gapparovlar o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi. Tadbirda soha xodimlari bugungi kunda yoshlar an'anaviy giyohvand moddalardan voz kechib, ayniqsa, psixotrop va kuchli ta'sir etuvchi moddalarni iste'mol qilish holatlari ko'paymoqda. Hozirgi yoshlarda tramadol va yangi paydo bo'lgan tropikamid dorilari iste'moli ham kuchaymoqda. Ular ta'sirida esa yoshlar tomonidan og'ir turdagi jinoyatlar sodir etilmoqda. Hudud va chegara bilmaydigan bu jinoyatlarning har biri jamiyat taraqqiyoti va davlatlar rivojiga jiddiy xavf tug'dirayotganligini aytib o'tdi.



Bugungi kunda aksariyat yoshlarimiz spirtli ichimliklarga ruju' qo'yayotganligi va buning natijasida turli jinoyatlar sodir etayotganli to'g'risida ham talaba-yoshlar tushunchalar berib o'tishdi. Shuningdek, bugungi kunda dolzarb mavzularda biri "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'yicha ham so'z ketdi. Universitetimiz Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i Akbar Umirovich Gapparov so'zga chiqib, Korrupsiya - bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorism va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Ayni paytda jamiyatning og'riqli nuqtasi ham shundadir. Korrupsiya bu mansabdor shaxslar tomonidan davlat hokimiyati yoki boshqaruvi vakolatlaridan foydalangan holda shaxsiy manfaatlarni yoki boshqa shaxslar manfaatini ko'zlab sodir etiladigan jinoyatlar yig'indisidir. Ya'ni korrupsiya mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan bir necha jinoyatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi illatdir. Bugun "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti ma'ruzalar zalida Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovni H.Eshova hamda fakultet tyutorlari tashabbusi bilan o'tkazilgan tadbirdan talaba-yoshlarimiz o'zlariga kerakli ma'lumotlarni olishdi.

YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti